

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!
N:25 (67190)
2018-yil 18-iyun
www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan
O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi
ISSN - 2010-6092

Tong yulduzi

DIQQAT, TANLOV!

«Kim ko'p kitob o'qiydi?»

Respublika an'anaviy tanloviga marhamat!



Aziz o'quvchilar!

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlarining «Tong yulduzi» gazetasini hamkorligida «Kim ko'p kitob o'qiydi?» Respublika an'anaviy tanlovini e'lon qiladi.

Tanlov shartlari quyidagicha:

Ishtirokchining surati, o'qigan badiiy kitoblari ro'yxati hamda mutolaa qilgan asari yuzasidan fikr-mulohazalari, maktabdagagi eng yaxshi kitobxon o'quvchi

ekanligini tasdiqlovchi maktab direktori yoki sinf rahbarining tavsifnomasi «Tong yulduzi» gazetasiga yuboriladi.

Maktabningizda telefon raqamingizni ko'rsatishni unutmang.

G'oliblar shu yil 1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida aniqlanadi. Va faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Siz ham tanlovda faol ishtirok eting va eng ko'p kitob o'qiydigan o'quvchiga aylaning.

Maktublariningizni quyidagi manzilga jo'nating: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks - 100011.

Telefon/faks: (0-371) 244-63-08. E-mail: info@tongyulduzi.uz

USHBU SONDA:

SIZNI
G'IJDUVONDA
KUTAMIZ!

2-bet

O'ZIMIZ
HAQIMIZDA
FIKRLAYMIZ

3-bet

TO'RTKO'LDAN
XIVAGACHA...

4-bet

YOLG'ONCHINING
JAZOSI

(Ertak)

6-bet

Oromgohda kechgan har bir kun,
Qadrlidir doim biz uchun.



KIMYO SEHRI

— Kimyo — mo'jizalar fani hisoblanadi. Kuni kecha ushbu fandan o'quvchilar imtihon topshirdilar. 9-«B» sinf o'quvchilaridan Umid Alimjonov, Maryam Ergasheva, Umida To'layeva, 9-«A» sinfidan Sadoqat Botirova eng faol o'quvchilarimidan, — deydi Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 35-umumta'l'm maktabining kimyo fani o'qituvchisi Zuhra opa Nig'matullayeva.

Uchquduq tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 20-umumta'l'm maktabida ham uch mavsumda

«HUMO QUSHLARI»

nomli oromgoh tashkil etildi.

Bu yerda o'quvchilarning madaniy dam olishlarini ta'minlash, turli sport o'yinlarini tashkil etish maqsadida kutubxona, faollar zali, maktab sport zali, kompyuter xonasi zaruriy jiozlar bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, bolalarning shahar markazidagi «Jemchujina» cho'milish havzasiga haftada ikki marotaba borishlari rejalashdirilgan.

Oromgohda «Barkamol avlod» bolalar markazining malakali pedagog xodimlari ham faoliyat yuritmoqda.

Zebo RAHIMOVA,
Navoiy viloyati, Uchquduq tuman xalq ta'limi bo'limi bosh mutaxassisini



«G'UNCHA» DA KECHGAN TA'TIL...

Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'l'm maktabida «G'uncha» nomli kunduzgi oromgoh ish boshladi. O'quvchilarning yozgi ta'til damlarini mazmunli o'tkazish maqsadida tashkillashtirilgan mazkur dam olish maskanida 100 nafr bolajonlar «Bilimdonlar», «Oqqushlar», «Kamalak yulduzlar», «Quvnoqlar» guruhiyaliga jalb qilingan.

Anorboyeva, Buvnisa Xonto'rayeva, Lutfiya Siddiqova va Fotima Imonqulova singari 14 nafr pedagog-tarbiyachi qiziqarli tadbir va adabiy kechalar uyshtirmoqda.

Yaqinda oromgohda «Kitobxonlik kunlari» hamda «Tabiatni asravmiz» rasmlari tanlovi o'tkazildi. «Quvnoq startlar» sport musobaqasida Asadbek Abdumannopov, Asilbek Arabov, Malohat Mahkamboyeva, Abdulboriy Nuraliyev va Zuhra Qudratovalar jamoasidan iborat «Bilimdonlar» guruhi g'oliblikni qo'lg'a kiritdi.



SIZNI G'IJDUVONDA KUTAMIZ!

Har bir insonning kindik qoni to'kilgan tuprog'i, ajodolarining muqaddas xoki yetgan aziz yeri bo'ladi. Men go'zal O'zbekistonda, uning eng muqaddas go'shasi bo'lmish yetti pirlar makoni — Buxoroi Sharifda, Xo'ja Abduxoliq G'iждивони yashab o'tgan ajoyib zaminda tug'ilganidan, shu yurt farzandi ekanligimdan faxrlanaman.

Vatanni sevish, uning tarixini o'rganish va ajodolari merosini asrab-avaylashdan boshlanadi. Zero, ona tuprog'imiz ne-ne buyuklarga beshik hisoblanadi. Bugun men sizlarga ana shunday azizlardan Xo'ja Abduxoliq G'iждивони nomi va u bilan bog'liq «Xo'jai Jahon» ziyoratgohi haqida qisqacha so'zlab bermoqchiman.

Rivoyat qilishlaricha, rumlik, Rum Abduljalil Rumiy bi kuni tush ko'radi. Tushida Xizr namoyon bo'lib, Buxoroga tashrif chog'ida G'iждувонда o'g'il farzand ko'rishi va bu butun dunyoga «Xo'jai Jahon» nomi bilan mashhur bo'lishini bashorat qiladi. Bu tabarruzot — Xo'ja Abduxoliq G'iждивони edi. U kishi 1103-yilda tug'ilgan. 9 yoshida yoq diniy ilmlarni chuqur egallaydi. Ustozi Yusuf Hamadoniyidan barcha bilimlarni o'zlashtiradi. O'z zamonasining buyuk allomasi bo'lgan Bahovuddin Naqshbandiy bobomiz ham Abduxoliq G'iждивонин o'zining ruhiy ustozi deb bilgan. Umri davomida minglab shogirdlar yetishtirgan, tasavvuf olamida mashhur 8 axloqiy talab muallifi bo'lgan G'iждивони 1179-yilda 76 yoshida vafot etadi. Ushbu bobomizning muqaddas qadamjosi

G'iждувон shahrida joylashgan. 1433-yilda Mavarounnah hukmdori, shoh va alloma Mirzo Ulug'bek tomonidan ustozga katta hurmat tariqasida qabri yonida madrasa buniyod etiladi. Bu yerdagi qadimiyy toshquduq hozir ham mavjud. Men har gal shahar markaziga borganimda, nafaqat yurtdoshlarim, balki chet ellik mehnomlar ham bu yerni hurmat bilan ziyorat qilishayotganini ko'rib, faxrlanib ketaman. Xalqimizning buyuk ajodalriga ko'rsatayotgan ehtiromidan benihoya xursand bo'laman. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbuslari bilan bo'layotgan bu yerdagi olamshumul o'zgarishlar, obodonlashtirish ishlari ko'rib, ko'zingiz quvnaydi. Darvoqe, shu yil iyun oyida Xo'ja Abduxoliq G'iждивонининг 915 yilligi keng nishonlanadi.

Aziz tengdoshlar, men zo'r mammuniyat ila bu ulug' ayyomga sizni ham taklif etaman. Keling, ziyorat qiling. Sizlarni G'iждувонда kutib qolamiz.

Gulchiroy JABBOROVA,
Buxoro viloyati, G'iждувон tumanidagi 43-umumta'l'm maktabining 8-«D» sinf o'quvchisi

NURLI MASKAN

**Bolajonlarning yozgi ta'til kunlari maroqli o'tishi uchun poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 243-umumta'l'm maktabida
«Orzu» nomli sog'lomlashtirish oromgohi tashkil etildi.**

Bu maskanda kitobsevar o'quvchilar uchun kutubxona tashkil etilgan. Shuningdek, bolajonlarni hayvonot bog'iga, madaniyat va istirohat bog'laridagi turli tadbirlar va muzemylarga sayohat kutmoqda. «Men sevgan kitob», «Kichik rassomlar», «Oromgoh malikasi» kabi tanlovlari bolalarga o'z iste'dodini namoyon qilishida yordam beradi. Ta'til davomida o'quvchilar «Mohir qo'llar», «Yosh kitobxonlar» kabi to'garaklarga ham qatnashishlari mumkin.

Umida SHOYAKUBOVA, boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Yozgi ta'tilning maroqli kechishini ta'minlashda oromgoh rahbari Shahnoza Mengliboyeva hamda Yoshlar ittifoqi sardori Shahlo Xolmatovaning xizmati cheksiz.

Dilfuza JO'RAYEVA,
o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari



«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG» TANLOVIGA



ZILOL SUVNING NOLASI

Ayni yoz kunlari suv barchamiz uchun yanada bebaivo ne'mat ekanligini anglaymiz. Ammo, aynan shu faslda bu ne'matni ko'proq isrof qilishimiz ham haqiqat. U esa bizga rohat bag'ishlashdan charchamaydi. Butun borliqni gullab-yashnatadi. Qolaversa, bugun suvdan elektr-energiya manbai si-fatida ham foydalanimoqda. Shunday ekan, bu aziz ne'matning tugab qolishidan tashvish chekib yashashimiz kerak emasmi?

O'ylab ko'rganmisiz, nega momolarimiz tushni suvgan aytishgan?! Demak, suv bizni tinglaydi, kerak bo'lsa, bizga so'zlaydi ham. Uning shildiragan ovozida «Meni asral» degan nola bor. Bu gaplarimidan balki taajjub-nayotgandirsiz?! Ammo hozirgi zamon olimlarining ma'lumotlari ko'ra, mikrokristal shaklidagi muzlagan suv molekulasi bir necha yuz marta kattalashtirilganda qanday muhitda joylashgani ga qarab shakl hosil qilgan.

Tashqaridagi har bir ta'sirga o'z munosabatini bildirgan. U hatto tanamizning 70%, miyamizning esa 90%ini tashkil etadi. Inson tanasining yangilanib turishi ham suv vositasida amalga oshadi.

Shunday ekan, bu nozik va zilol ne'matni ardoqlaylik, unga befarq bo'lmaylik.

Sitora ABDIRAHMONOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qamashi tumanidagi
63-umumta'lum maktabi
o'quvchisi

Faqat aqlli va qalbi toza kishigina to'la
ma'nodagi yaxshi va ishonchli odamdir.
K. D. USHINSKIY

MAKTABGA ELCHI KELDI

Marg'ilon shahridagi 6-umumta'lum maktabi nemis tilini chuqur o'qitishga ixtisoslashtirilgan. Bilim maskanining tirishqoq o'quvchilari fan olimpiadalari va «Bilimlar sinovi»da faol ishtirot etishadi. Jumladan, 8-sinf o'quvchilari R. Katanov, G. Saidmavlonova bu kabi bellashuvlarda sovrinli o'rirlarni qo'iga kiritishgan.

Ta'lim maskani o'qituvchilari ham har jabhada ilg'or. Nemis tili fani o'qituvchisi M. Abdurazzoqova va S. Karimova «Eng yaxshi o'qituvchi» ko'rik-tanlovida muvaffaqiyatlari ishtirot etib kelmoqda. O'quv maskani rahbari Farhod Mavlonberdiyevning aytishicha, maktab jamoasi ko'p yillardan buyon O'zbekistonidagi Germaniya elchixonasi va nemis tilini o'rgatish markazi bilan mustahkam aloqa o'rnatgan. Ammo bu gal o'quv dargohida o'zgacha uchrashuv bo'llib o'tdi. Maktabga Germaniyaning O'zbekistonidagi favqulodda va muxtor elchisi Gyunter Overfeld tashrif buyurdi. Tashrif davomida mehnom o'qituvchi va o'quvchilar bilan dildan suhbatalashdi. Ta'lim dargohida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi. Va ustoz hamda o'quvchilarga kelgusi o'quv yilida ham muvaffaqiyatlar tiladi.

Muhammadjon MAHMUDOV

O'ZIMIZ HAQIMIZDA FIKRLAYMIZ

– Hadeb o'zimiz haqimizda o'ylayversak, xudbin bo'llib qolmaymizmi? «Tong yulduzi» gazetasining doimiy muxlislardan biri bu rukn ostida e'lon qilinayotgan maqolalarni o'qib, shunday savol beribdi.

OILAMIZ – KITOBXON

Oilamizda barcha kitob o'qishni yaxshi ko'radi. Uyimizda mo'jazgina kutubxona ham bor. Buvim o'qigan kitoblarimizning mazmuni va undan nimalarni o'rganganimiz haqida so'raydi. Biz esa xulosalarimizni so'zlab berishdan charchamaymiz.



Singlim Binafsha 2-sinfda o'qiydi. Unga ertak kitoblar ko'proq yoqadi. Buvijonim esa pandoma asarlarni mutolaa qilib, bizga hikmatli so'zlarni aytib beradi. Shuningdek, gazeta-jurnallarga ham obuna bo'lganmiz. «Tong yulduzi»ga yo'ilgan maktubim gazetada chop etilganini ko'rib, oila a'zolarim juda xursand bo'lismi.

Kitob – insonning yo'lboshchisi. U bizni ezzulikka chorlaydi. Shunday ekan, mutolaa orqali bilimimizni oshirib, komillikka erishaylik!

Mohichehra ATABEKOVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi
19-umumta'lum maktabi
o'quvchisi

Bu savolga Hazrat Alisher Navoiy haqida xalq og'zaki ijodi orqali bizgacha yetib kelgan bir hikoyat bilan javob berishga harakat qilamiz.

Tarixchilarning yozishicha, Hazrat Alisherning do'sti, Xuroson podshosi Husayn Boyqaroga vazir bo'lgan davrlarda odatdagidan-da serharakat bo'llib qolibdi. Bir kun madrasada ta'lim olayotgan iqtidori talabalarning o'qish jarayonini nazorat qilsa, boshqa kuni ariq qazuvchilar oldiga borib, «Horma, bor bo'l», der ekan. Boshqa kun bino quruvchilar oldida hozir bo'llib, ularning yetar-yetmasini so'rар ekan. Shunda: «Men Alisher Navoiyga o'xshab xalqqa sevimli sho'r bo'lismi orzu qilaman», deb har yerdan gapirib yuradigan, lekin yozgan baytini qayta o'qishga ham erinadigan bir yigit shoirning yo'lini to'sib:

Bir sinfda o'qib, bir partada o'tiradigan Karima ham, Salima ham matematika fanidan olimpiadaga tayyorlanishar, ustozlari topshirgan masala, misollarni mustaqil ravishda yechishardi. Olimpiadaga tayyorgarlikni tekshirish uchun kelgan vakil har ikkala qizning daftaroni ko'zdan kechirgach, Salimaga:

– Sening harakating yaxshi. Bo'shashmasang, albatta, muvaffaqiyatga erishasan, – debdi.

Karimaga esa:

– Sening masalalaringga chalkashiliklar bor. Shoshar ekansat. Matematika shosh-qaloqlikni ko'tarmaydi. Bitta raqamda, hatto bitta belgida xato ketsa, misolning yechimi noto'g'ri bo'ladi, – debdi.

Vakilning gapi Karimining jahlini chiqaribdi. Ichida o'tog'iqa qarab: «Hap,

– Hazrat, sizga yordam beray, degandim. Menga qanday ish buyurasiz? – deb so'rabi. Shunda Navoiy: – Siz orzu qilishni yaxshi ko'rigan yigitsiz. Lekin orzu ro'yobi uchun qattiq mehnat qilishga kelganda, dangasalik qilasiz. Agar o'zingizdagi shu nuqsonni tuzatsangiz, chinakam serharakat yigitga aylansangiz, mening yonimda yana bir ishonchli shogird paydo bo'lar va mening tashvishlarim biroz bo'lsa-da, kamagan bo'lar edi, – degan ekan.

Nima demoqchiman? Benuqson, mukammal daholar hamma zamonlarda bo'lgan. Ular boshqalarga hamisha ijobji ta'sir o'tkazadi, ko'plarni orqasidan ergashtiradi. Boshqalar esa, hech bo'lmaganda, o'zi haqida o'ylab, o'zini nuqsonlardan xalos eta borib, kamolotga intilsa, demak, u ham o'ziga, ham daholarga yordam bergan bo'ladi, ya'ni xudbinlik yo'lini tutmag'an hisoblanadi.

HASAD

senimi?!» deb qo'yibdi. Payt poylab, Salimaning daftarin bo'g'irlibdi va o'ylab-o'ylab, adirdagi tikanzorga ko'mishni rejalshtiribdi.

G'ira-shira payti tikanzorga borib, yerni qo'lli bilan kovlab, daftarni qo'mib qo'yibdi. Shu paytda kaftiga ikki-uchta tikan kiribdi. Uyga qaytgach, igna bilan tikanlarning bir-ikkitasini olgандек bo'libdi.

Og'riyergach, malham surib, bog'lab qo'yibdi. Oradan bir necha kun o'tib, borgan sayin kaftidagi og'riq kuchayibdi. Onasi uning isitmalyayotganini ko'rib, shifokorga olib boribdi.

Shifokor tekshirsa, kaftning tikan turgan joyi yiring bog'lab ketgan ekan. Shundan so'ng,

Karimaning kaftini operasiya qilishga to'g'ri kelibdi. Jarrohlik amaliyatidan so'ng, shifokorlar ruchka ushslashga ruxsat bermagani uchun Karima olimpiadaga qatnasha olmabdi. Faqat daftarda emas, tafakkur, miyasida ham tayyorgarlik ko'rayotgan Salima olimpiadada muvaffaqiyatlari ishtirot etib, avval qolmagan, so'ng tumanda g'olib bo'libdi...

...Voqeani eshitgach, ko'nglingizda yo xotirjamlik, yo afsus uyg'onadi. Xotirjamlik uyg'onsa, siz hasaddan yiroqsiz, afsus, pushaymonlik sezsangiz... unda fikrlay boshlaganingiz ma'ql!

Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat
xodimi

Zehn qo'ysa, ong qo'nar,
Hunar ortsa, ish unar.

MOHIR USTOZ MOHIRA

Ta'til boshlanganiga qaramay, o'quvchi-qizlarimiz texnologiya fani o'qituvchisidan bir-biridan ajoyib buyumlar yasash-u tikish-bichish ishlari o'rganishda davom etmoqda. Maktabimizning texnologiya fani o'qituvchisi Mohira Atajonova ham shogirdlariga saboq berishdan sira tolmaydigan ayol.

O'quv yili davomida maktab yangi bichish stollari va mashinalari bilan ta'minlangani qizlarning bu mashg'ulotga bo'lgan ishtiyoyqini yanada orttirgan bo'lsa, ajabmas. Bundan tashqari, ustozi to'garaklar rejasini ham shogirdlarining qiziqishlaridan keilib chiqib tuzadi. Qo'lli gul qizlar esa bunga javoban turli tadbir va tanlovlarda yaxshi natijalarga erishmoqda. Jumladan, 5-sinf o'quvchilarini gazlamlardan milliy qo'g'irchoqlar yasash, 6-sinf qizlari do'ppi tikish, andaza olish, 7-sinf qizlari esa quroqchilik san'atini mukammal egallaganliklarini har yili «Bahor malikalar», «Balli, qizlar!» kabi tanlovlarda namoyish etishadi. Mehnatsevar, fidoyi ustozning shogirdlari bilan «Amaliy san'at» muzeysiiga yushtirgan sayohat ularni yanada quvontirdi. U yerda qizlar milliy liboslarimiz, xalq hunarmandchiligining sir-asrorlari bilan yaqindan tanishdi.

Mohin OMAROVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi
153-umumta'lum maktabi o'qituvchisi



KITOB YOG'DUSI

Kitob o'quvchining fikr doirasini kengaytirib, unga cheksiz ma'naviy ozuqa beradi. Buyuk mutafakkir shoir Abdurahmon Jomiy shunday degan: «Dunyoda kitobdan yoqimliroq do'st, undan ortiq g'amxo'r yo'q».

G'allaorol tumanidagi 58-umumta'lum maktabida faoliyat yuritotgan Axborot-resurs markazi ta'til bo'lishiga qaramay, kitobxon o'quvchilar bilan doimo gavjum. Kutubxona mudirasi Mohichehra Hotamovaning yelib-yugurishi va jonkuyarligi sababli birgina 2017-2018-o'quv yili davomida yangi nashrdan chiqqan badiiy adabiyotlar ko'rgazmasi, ma'rifiy tadbirlar, darslik va badiiy adabiyotlardan foydalanish tanlovlari namunali tashkil etildi.

Shuningdek, o'quvchilar o'tasida tumanimizda yetishib chiqqan taniqli insonlar – O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Gulnora Mansurova, urush va mehnat faxriysi Omor bobo Shayzoqov hamda ajoyib inson Toshpo'lat O'rionboyevlar haqida maroqli suhbatlar o'tkazildi. Yuqori sinf o'quvchilaridan Asadbek G'aniyev va Orasta Xudoyberdiyevalar joriy o'quv yilida «Kitob marafoni»da faol ishtirot etib, faxrlı o'rinni egalladi.

Bugungi axborot telekommunikatsiya vositalari o'quvchilarimizni katta adabiyotdan aslo uzoqlashtirgani yo'q, – deydi o'quv dargohining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinnosari Nargiza Xudoyberdiyeva. – O'quvchilarga kitob ulkan mo'jiza ekanligini, yozgi ta'til kunlarida ham badiiy adabiyotlar mutolaasi bilan mashg'ul bo'lish lozimligini tushuntirmoqdamiz. Negaki, ko'p kitob o'qigan bolaning fikrash doirasi keng, zehni o'tkir bo'ladi.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

TA'TILDA ENG YAXSHI MASHG'ULOT

Har gal oynayi jahon orqali «Sehrli qalpoqcha» filmi namoyish etilganida, qayta-qayta tomosha qilaman. Ushbu asar muallifi, sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevni esa tanimaydigan tengdoshim bo'lmasa kerak.

Yaqinda yozuvchining «Besh bolali yigitcha» asarini o'qib chiqdim. Unda Ikkinci jahon urushidan keyin ota-onasidan yetim qolgan Orijon va uka-singillarining taqdiri haqida hikoya qilingan. Asardiagi voqealar har qanday bolani ta'sirlantirib, bugungi imkoniyatlarga munosib bo'lmoqqa chorlaydi. Jumladan, qahramonning quyidagi gaplariga e'tibor bering:

– Hozir esa hecham o'ynay olmayman, o'yingga berilib ketsam, uydagi ishlarni qolib ketadi. Keyin opam xafa bo'lib qolishi mumkin. Men opamni yaxshi ko'raman, juda-juda yaxshi ko'raman. Hecham xafa qilmasam, hecham yig'latmasam deyman...

Uning so'zlarini o'qir ekanmiz, beixtiyor o'zimizga savol beramiz. Biz otanomizning qadriga yetyapmizmi, opa-ukamizga yetarlicha mehr-e'tibor beramizmi?

Asar so'nggida yozuvchi har qanday vaziyatda ilm olish, ma'rifatli bo'lish doimo muhimligini ta'kidlab, Zulayho, Hayitvoy kabi o'g'il-qizlarning Qo'qon shahridagi bilim yurtining tayyorlov kurslariga jo'natilganligini yozadi.

Ta'til kunlarida barcha tengdoshlarim sevimli adiblarimizning qiziqarli asarlari o'qishlarini istardim.

Malika ERGASHEVA,

Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi
Oqtosh tadbirdorlik va servis kasb-hunar kolleji o'quvchisi



TO'RTKO'L DAN XIVAGACHA...

Hikoya qilmoqchi bo'lganimiz, Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazi a'zolarining Xorazmdagi tarixiy obidalarga qilgan sayohatlarini taassurotlarga boy bo'ldi. Ayniqsa, ularning Samarqand-u Buxoroga qilgan sayohatlaridan olam-olam zavq olishgani, shubhasiz. To'rtko'l dan Xivagacha bo'lgan masofada bolajonlarning maroqli suhbatni faqat shu haqda bo'ldi.

Markaz rahbari Asiya opa Yernazarova bilan bog'langanimizda, «Bizning bolalarimiz erishgan muvaffaqiyatlar juda ko'p, ularning barini yoza-sizmi?» deya savolga tutdi. Menden, «Albatta»,



degan javobni olgach, bolajonlar haqida to'lib-toshib so'zlay ketdilar.

– Markazimizda 48 ta to'garak tashkil qilingan bo'lib, texnik ijodkorlik, badiy ijodiyot hamda ekologiya va o'lkashunoslik kabi yo'nalishlar bo'yicha 1140 nafar o'quvchi hunar o'rganmoqda. To'garak xonalari barcha jihozlar bilan ta'minlangan. O'quvchilarning o'z ustida mustaqil shug'ullanishlari uchun ma'naviyat va ma'rifat xonasida kutubxona tashkil qilingan. Mashg'ulotlardan tashqari,

«Ochiq eshilklar kuni», «Mening birinchi ustozim», «Yosh hunarmandlar», «Moziydan kelajakka sayohat», «Iqtidorli o'quvchilar festivali», «Balli, yigitlar!» singari tadbirdirlarni o'tkazish yaxshi an'anaga aylanishgan. O'quvchilarimizning erishgan

yutuqlari haqida uzoq gapirish mumkin. «Ekologiya bolalar nigo'hida» ekofestivalida engilz tili to'garagi a'zosi Diyorbek Qurbanboyev 1-o'rinni egalladi. O'tgan yili Nukus shahrida «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot festivalida «Tasviriy sa'nat» yo'nalishida Sherli Jumaniyazov, «Liboslar dizayni» bo'yicha Nilufar Xojiboyeva, «Munchoqli bezak» yo'nalishida Go'zal Mambetova, «Badiiy to'qish» dan Mashhura Razzoqova, «Do'ppido'zlilik» yo'nalishi bo'yicha Aynurra Tajiboyeva, yumshoq o'yinchoqlar va qo'g'irchoqlar yo'nalishida Maftuna Nuraddinovalar faol qatnashdilar.

Ushbu maskandagi o'quvchilarining g'alabalari haqida hali ko'p marta to'xtalamiz. Bo'lajak ixtirochilar, rassomlar-u



2018-yil

«Faol tadbirdorlik, innovatsion goyalar va texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash yili» Dasturi ijrosini bajarish maqsadida tuman markazidan 35-70 km uzoqda joylashgan maktablarda qo'shimcha 25 ta to'garak tashkil qilindi.

haykaltaroshlar bo'y ko'rslayotgan markaz o'quvchilarining yutug'idan, vaqtli kelib, nafaqat qoraqalpoq eli, balki butun O'zbekiston ahli g'ururlanib yursa, ajabmas.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Uzbekistan



I live in a sunny land
It is so beautiful and
Flour shining country
Uzbekistan Motherland

Shahlo NURMUKHAMMEDOVA

Three qualities


Luqmoni Hakhim said to his son that three things are revealed in three places. The endurance - is revealed in unhappiness days, bravery - in wrestling, friendship - when it's necessity.

Dictionary

Endurance- chidam
Unhappiness- kulfat
Bravery- botirlik
Necessity - ehtiyoj



Translated by Sarvinoz NAZAROVA,
the pupil of lyceum under Uzbek state World Languages University




Once upon a time a rich dad decided to teach his son how poor people lived. He took him down to a village to spend a day with a poor family. At the end of the day, he asked his son, «Did you see how poor people can be? What did you learn from this?» the son replied, «It is simple dad. We have one dog, but they have four. We have one pool, they have an entire river. We buy our food; they grow it on the field around them. Thanks for showing me how poor we are.»

PHONETIC EXERCISE

Find the words with pronounce with long E sound

C	R	E	E	P	E	E	N
T	H	R	E	E	D	E	O
B	M	S	L	E	A	K	O
T	P	E	E	L	G	E	N
E	G	E	A	J	R	E	G
E	L	P	F	E	E	T	F
T	E	E	N	E	N	C	E
H	O	O	N	P	E	N	U




Painter: Sumbula MEIMIRODOVA

Dinora ABDULLAJONOVA

WHAT IS IT?

I scrape grasshoppers
I always walk alert.
I never choose any food,
But I am a little fat.



My sisters are dark yellow,
They always fight for grain.
And I white as cotton too,
I look out them.

Translate by Sevinch CHORIYEVA,
the pupil of school №48 Oltinsoy district Surkhandarya region



Painter: Yaqubbek HALIMBEKOV

Well begun is half done.


LEARN VOCABULARY

There given English new words with the definitions. Your task is matching the suitable answer.

1. Tradition – a) the transmission of customs, belief from generation to generation.
2. Family – b) an activity to spent leisure time.
3. Memory – c) consists of father and mother also their children living together.
4. Guest – d) a person entertained in one's house.



1-..., 2-c, 3-...,
4-..., 5-..., 6-...



5. Pony – e) a small horse.
6. Hobby – f) something remembered from the past.

Word game

Fill fill the gaps with the correct letter.



1. I ca_ ght a disease wh_n I was on _oliday.
2. My ey_s real_y hurt if I use the comp_ter too much.
3. The n_rses in the hos_ital will l_ok after you.
4. Tak_ this medi_ine th_e times a _ay.
5. Tr_ to sto_ the ble_ding with a ban_ag_.



6. Be ca_eful you _on't burn yo_rself on th_hot o_en.
7. I cough_d all day b_cause I h_d a col_.



8. I in_u_ed my le_ playin_footbal_.
9. If s_e doesn't get bet_er the doctor will ne_d to op_rate.
10. It was a hot da_ and I was swea_ing as i r_n.

CORRECT THE MISTAKES

1. he haves lunch at home – He has lunch at home

2. I can speaking French –
3. You speak very well English –
4. Can you speak more slow, please? –



5. we don't have some children –
6. I'd like shopping –
7. he have working today –
8. I'm do my homework now –
9. Where are you coming from –
10. we go on holiday next week –
11. I going to see my uncle next weekend –
12. Do you work tomorrow? –

Ma'mura G'ULOMOVA,
Zilola SIROJIDDINOVA,
the teacher of school № 41 Angren
district, Tashkent region

*She'r - qalbimda
ko'kargan maysa...*

Yoz keldi

Issiq kunlar boshlanib,
Yoz keldi-ku olamga.
Cho'milishga shaylanib,
Soyga ketdik bir zumga.

Hamma suvga otlib,
Cho'milar chapillatib.
Biz ham suvga otildik,
Qo'llarni shapillatib.

Oila
Oilada olti odam,
Yashaymiz mehr bilan.
Oilaning boshlig'i –
Mehribon buvum bilan.
Nozima BOYMATOVA,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
272-umumta'lum maktabi o'quvchisi

GLOBUS

Yer yuzining modeli,
Globusni bilamiz.
Unga qarab dunyoning,
To'rt tomonin ko'ramiz.

Bir tomoni quruqlik,
Daryo, dengizlar bisyor.
Tog'lar salobat to'kib,
Turar quchog'iда qor.

Unda hamma davlatlar,
Turli rangda bo'ladi.
Yerning aylanish o'qin,
O'quvchilar ko'radi.

Intizor MARDONOVA,
Samarqand viloyati, Nurobob
tumanidagi 1-umumta'lum
maktabi o'quvchisi

Jilg'alar daryoga shoshadi

Kuni kecha Andijon viloyati, Qo'rg'ontepka tumanidagi 25-umumta'lum maktabi qoshida faoliyat olib borayotgan «Zulfiya izdoshlar klubi rahbari, ona tili va adapiyot fani o'qituvchisi Muttarxon To'raxo'jayeva va ushbu to'garakning bir guruh ijodki o'quvchilaridan xat oldik. Maktubda andijonlik yoshlar «Tong yulduzi» gazetasini muntazam kuzatib borishlarini, rang-barang sahilalarda berib borilayotgan bir-biridan qiziq va mazmunli she'r va hikoyalarni, ertaklarni miriqib o'qishlarini yozib yuboribdi. Hatto to'garak a'zolari 2018-yil uchun obuna ham bo'libdi.

Quyida ularning mazmundor she'rlarini sizlarga ham ilindik.



Quyosh ko'nda charaqlar,
Ajoyib gullar bog'da.
Maysazorda iymanib,
O'yinab yurar shabboda.

Bir ko'z ochib yunguncha,
Quyosh berkinib oldi.
Chaqmoq, momaqaldiroq,
Har tomon dovrug soldi.

Bir zum o'tmay osmondan,
Yerga nur eklardi.
Ko'kdagi bulutlarning,
Ko'z yoshi to'kilardi.

Umida ABDUHAKIMOVA

KO'MAKCHI

Yordamchiman –
ko'makchi,
Bog'lovchi,
yuklamadan.
Otni fe'liga
bog'layman,
Qolishmayman
sira ham.

«Uchun», «sari»,
«Uchun», deb,
Maqtanishar negadir.
Ayyorlikni dog'layman,
Asli ular mendan kam.

Diyorbek EGAMBERDIYEV



ONAJONING DUOSIN OL

Onalarning qalbi
dardga to'limasini,
Ular doim bizga
erur mehribon.
Yuragida dard-alami
bo'limasini,
Biz yuramiz mehr
bilan sog'omon.



Tong otganda g'am-tashvishsiz turasan,
Onang erur boshing
uzra soyabon.
Ko'cha-ko'ya ko'krak kerib yurasan,
E'zozlaydi seni ona mehribon.

Davronbek ABDUPATTOYEV



Hammaga birdek yoqar,
Daraxtdan bizga boqar.
So'ylar go'yo:

«Meni ye»,
«Oh, qanday
shirinsan», de.

«Olmannan qizmiz yuzli,
Ta'miday shirin so'zli.
Meni qishqa terib qo'y,
Vitamin ko'p, bilib qo'y.

Mazza qilasan yesang,
Har xil turim bor, bilsang.
Mening faslim – ayni yoz,
Tanamga turli rang mos.

Mushtariybonu SHAMSIDDINOVA



«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

O'sha kuni qiziq bo'ldi, nabiraginam.
Sen maktabdan kelding-da, bivingni
ko'zoynagini qo'liga tutqazib:

– Dadam tuzattirib menga tashlab
ketdilar, bivingga tezroq olib borib ber,
yuraklari siqilib o'tirmasini, men ishdan
kech qaytaman, dedilar, – deding.

Bivinglar, ota-bola meni o'yabsizlar,
sizlarni Xudo o'ylasin, halidan beri ikki
dunyoim qorong'i bo'lib o'tirgan edim, deb
duo qildilar. Ha, ko'zoynakka o'rgangan



Erkin MALIK,

O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist

dim-ku, tuzattirib, sizzi
nomingizdan ko'zoynakni
buvinga berib qo'yaman,
deb. Adam bo'lsalar siz-

larga nimaga qo'nig'iroy qilibdilar,
hayronman, – deding norozi bo'lib.

– Adang to'g'ri qildi, bolam, xatosi uchun
onasidan kechirim so'radi. Garchand xas-
tosini sen to'g'rilagan bo'lsang-da. Bilib
qo'y, dadang birov qilgan savob ishni
o'ziniki qilib, indamay ketadiganlardan-
mas. Garchi bu ishni o'z o'g'li qilsa ham.
Bunga uning vijdoni yo'l qo'yaydi. Axir
hamma narsani Xudo ko'rib, bobil turidi-
ku, bolam. Bir qarashda dadajoningni
ayamoqchi bo'lganining yaxshi, yolg'on
aralashmagani undan ham yaxshi-da,
mening umidli bolam. Bilasanmi, Payg'amb-
arimiz Alayhissalom, «Yolg'onchi bizdan
emas», deganlar. Ehtiyyot bo'l.

(Davomi bor)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim
o'tgan zamonda katta bir o'rmonda
hayvonlar va qushlar tinch, osuda
yashar ekan. Ammo ular orasida
bir yolg'onchi to'ti hammani dilini
xira qilib, tinchligini buzar ekan.
Kunlardan bir kuni to'tining qo'shnisi
kakku palaponlariga yegulik olib
kelish uchun uyasidan uzoqroqqa

To'ti bu so'zlarga e'tibor bermay,
yolg'onlari bilan o'rmondag'i bosh-
qa qushlarga ham ozor berishda
davom etibdi.

Oradan oylar o'tib, To'tiqushning
uyasida ham jippi palaponlar dunyoga
kelibdi. Kuni atrofdagilarga ozor
berish bilan o'tgan qush, endi bolalarini
boqishi, ularga yemish olib kelishi

kerak bo'libdi. Ishyoq-
mas, dangasa to'ti
istar-istamas o'mon
ichiga ozuqa izlab ke-
tibdi. Shoxdan shoxga
qo'nib, o'yinqaroqlik
qilib yurganida, kakku
qush to'tining oldiga
hovliqib uchib kelibi-
da, «Qo'shnijon, tez
bo'l, uyanga katta
ilon hamla qilyapti.
Palaponlaring xavf os-
tida», debdi. To'tiqush

esa bu so'zlarga ishonmay, «Sen
menden alamingni olish uchun
yolg'on gapiriyapsan», debdi. Kak-
ku har qancha karabat qilsa ham
yolg'onchining ko'zlarini haqiqatni
ko'rolmabdi. To'ti uyasiga kelib,
palaponlarini topolmagach, yolg'onlari
uchun jazo olganini anglab yetibdi.
Ammo, endi kech edi.

Ko'rdingizmi, aziz tengdoshim,
yolg'onchilik ana shunday ayovsiz
jazolanadi. Shuning uchun doimo
rost so'zlashimiz, yaqinlarimiz
ko'nglini og'ritmasligimiz lozim.

Sitora XOLMAMATOVA,
Qashqadaryo viloyati, Koson
tumanidagi 9-umumta'lum maktabi
o'quvchisi

BEKNI MAG'LUB ETGAN BEKTEMIR

O'tgan hafta Qozog'iston poytaxti Astana shahrida boks bo'yicha «Prezident kubogi» xalqaro turniri bo'lib o'tdi. Ushbu yirik musobaqada dunyoning 15 ta davlatidan jami 162 nafar mohir charmqa'lqop ustalari g'oliblik uchun o'zaro bahs olib bordi.



Quvonlari, tumorda mamlakatimiz bokschilar ham munosib ishtirot etib, yakunda 1 ta oltin, 2 ta kumush va 4 ta bronza medalini qo'lg'a kiritishdi.

Jumladan, - 81 kg vazn toifasida Bektemir Meliqo'ziyev qozog'istonlik boksci Bek Nurmagambetova qarshi ringga chiqib, raqibiga hech qanday imkoniyat qoldirmadi va temra jamoamiz hisobiga yagona oltin medalni taqdim etdi. - 60 kg vazn toifasida Shunqor Abdurasulov finalda rossiyalik Gabil Mamedova imkoniyatni boy bergan bo'lsa, - 64 kg vazn toifasida ringga chiqqan Iqlaboljon Xoldorov esa mezonlar vakili Bekdaulet Ibragimovga yutqazdi va har ikkala bokschimiz kumush medallariga ega bo'ldi.

Shuningdek, yarim finalda mag'lub bo'lgan bokschilarimiz Shahobiddin Zoirov (- 56 kg), Aliyor Noraliyev (-64 kg), Mahmud G'oipov (-69 kg) va Isroil Madrimov (75 kg) esa bronza medalini qo'lg'a kiritdi.

S.TURSINOV

Jarima, zarba, gol – Bu siz sevgan futbol

Salom, qadrli millionlar o'yini muxlislari-yu yosh futbolchilar! Bugun sizga futbolga oid qiziqarli bir ma'lumotni yetkazmoqchimiz.

Bilasizmi, BMTning Bolalar jamg'armasi (UNICEF) hamda Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi (FIFA) kelishuviga ko'ra, **19-iyun sanasi Jahon bolalar futbol kuni** deb belgilangan. Zero, sportning bu turi bolalarni har tomonlama rivojlantiradi, jamaa bo'lib harakat qilishni o'rgatadi.

Orangizda millionlar o'yiniga qiziqmaydigan bolakayning o'zi bo'lmasa kerak?! Axir kim ham o'zining futbol to'pi bo'lismeni yoki mahalladagi tengoshshari bilan to'p surishini istamaydi, deysiz!

Sana munosabati bilan biz suhabatga tortgan do'stlaringiz ham ushbu sport turini jon dildan yaxshi ko'rishadi.

Muhammadali YO'DOSHEV, Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 202-umumta'lum maktabi o'quvchisi:

– 4-sinfda o'qiyotganimda, maktabimizga hozirgi murabbiyim kelib, bizni futbol to'garagiga taklif qilgandi. Shundan buyon tumanimizdagidagi bolalar va o'smirlar sport maktabiga a'zoman. Birinchi bor shahar championatida 1-o'rinni organizma, juda quvonganman. Futbol mening quvonchim, faxrim va eng sevimli mashg'ulotimdir. Ustozim Farrux aka Yo'doshevda uning sir-asror-

larini o'rganan ekanman, kelajakda mohir futbolchi bo'lismeni orzu qilaman.

Asilxo'ja QODIROV, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 226-umumta'lum maktabi o'quvchisi:

– Bir kuni do'stminning kompyuterda futbol o'yini o'ynayotganini ko'rib, keng maydonda haqiqiy to'p surishni istab qoldim. Futbol klubiga a'zo bo'lib, mashg'ulotlarga qatnay boshladim. Bo'yim baland bo'lgani bois, murabbiyim Avaz aka Abdullayev mendan yaxshi darvozabon chiqishini aytdi. Ayniqsa, onam olib bergen sport kiyimi menga juda yoqadi. Uni kiyib futbol o'ynayotganimda, o'zimni bo'lajak championlarde his qilaman.

QIZLARXON



Andijon viloyati, Shahrixon shahrida yashovchi tengdoshlarin-giz Hasanbek va Husanbek Yunusovlar shahardagi 6-umumta'lum maktabi o'quvchilari. Ular bu yil 6-«A» sinfni a'lo baholarga tamomladi. Egizaklar ta'til bo'lishiga qaramay, ingliz va rus tili mashg'ulotlarini qoldirmaydi.

EGIZAKLAR POYTAXTGA KELADI

Sinfodosh aka-ukalar bu yil orom-gohga bormadi. Chunki ular 74 yoshi buvijoni Ra'xonon ayaga uy va tomonqa ishlarda yaqindan yordam bermoqda. Buvi va suyukli nabiralar birgalikda ekkan pomidor ko'chatlari rosa hosilga kirdi, oldi mevalari qizariham qoldi.

Ra'xonon aya nabiralariga rus tilida nashrdan chiqqan Turgenevning hikoyalari va Astrid Lindgrenning «Mittivoy va Karlson» ertak-qissasini sovg'a qildi. Ular endi kitoblarni ham navbatna-navbat mutolaa qilibashadi.

Ha, aytmoqchi, buvi egizaklarni yangi o'quv yili oldidan poytaxtga sayohatga olib kelmoqchi. Hozirda Hasanbek va Husanbek bo'sh vaqtlarida maktab kutubxonasida poytaxtda joylashgan teatr va muzeylar haqida ma'lumotlar beruvchi ensiklopedik adabiyotlarni o'rganmoqda.

Nurbek QIDIRALIYEV

KONIMEXLIK G'OLIBLAR

2018-yil 30-maydan 4-iyunga qadar Rossiyaning Anapa shahrida sportning kikboksing turi bo'yicha «Jahon kubog'i» bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqada Konimex tumanı bolalar-o'smirlar sport maktabi kikboksing bo'limi tarbiyalanuvchilari J. Urazboyev, Sh. Davlatov va S. Qahhorovlar ishtirot etdi. Yakunda Jasur Urazboyev +91 kg vazn toifasida Rossiya hamda Hindistondan kelgan raqiblari bilan jangga chiqib, 2-o'rinni qo'lg'a kiritdi.

YOSHLAR SPORT OLIMPIADASI



bo'sh vaqtlanri mazmunli o'tkazish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida uch bosqichli «Yoshlar sport olimpiadasi» o'tkazildi.


Yoshlar sport olimpiadasining 3-viloyat bosqichi Norin tumanidagi «Shodlik» markaziy stadionida bo'lib o'tdi. Musobaqa yoshlarning chinakam sport bayramiga aylandi. Unda 430 na-fardan ziyod uyushmagan yoshlar, 500 nafardan ziyod korxona, tashkilotlardagi yoshlar ishtirot etdi.

Mini-futbol musobaqasida 1-o'rin Uychi tumanı, 2-o'rin To'raqo'rg'on tumanı, 3-o'rin esa Kosonsoy tumaniga nasib etdi. Voleybol bahslarida 1-o'rin Yangiqo'rg'on tumanı yoshlariga teng keladigan raqib topilmadi. Stol tennis bahslarida 1-o'rinni popliklar qo'lg'a kiritgan bo'lsa, arqon tortish va tosh ko'tarish bo'yicha Norin tumanı yoshlariga q'olib bo'ldi.

Umumjamoa hisobida 1-o'rin Norin tumanı, 2-o'rin To'raqo'rg'on tumanı, 3-o'rinni Uychi tumanı jamoalari egallashdi.

Musobaqa g'oliblari tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi. E'tiborli, «Yoshlar sport olimpiadasi» ilk marta Namangan viloyatida o'tkazildi va Respublika miyosida ommalashdi.

M. ALIMOV



HAVAS

Aziza bog'cha tarbiyalanuvchisi. Buvisinikiga borganda Nigora opasi bilan birga dars tayyorlayotib, ruchkasiga, darsligiga havas bilan boqaradi. «Qani endi mening ham bo'yim o'sgan sari aqlim ham o'sib borsa.


BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

«A» HARFLI KROSSVORD

Javoblar «a» bo'g'lini so'zlardan iborat.

Eniga: 5. Futbol jamaa. 6. Sabzavot. 9. Armanistondagi tog'. 10. Poytaxti – Ottawa. 11. Yenisey irmog'i. 13. Elektr sig'imirning o'lchov birligi. 14. To'rtburchak shakl. 17. Qat'iy va'da, ont. 21. Janub mevasi. 22. Ip o'rami. 23. Jismonan yetuk, zaborast. 24. Savdo turi. 25. Kashtachilik buyumi. 26. Avtomobilarni saqlash inshooati.

Bo'yiga: 1. Maqoldan: «Harakat, harakatda – ...». 2. Samodagi turfa rang, manzara. 3. Gulsevar hasharot. 4. Mumtoz shoir Maxmur asari. 7. Adabiy janr. 8. Gap turi. 12. To'shamma jihoz, kigiz. 13. Koinot, ufq. 15. Qirg'iz xalq eposi. 16. Urma musiqa asbobi. 17. Igna borg'li daraxt. 18. Rossiya Federatsiyasining Uzoq Sharqdagi viloyati. 19. Bاليخور' ko'l qushi. 20. G'alaba, muvaffaqiyat.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

18-iyun 2018

BOLAR OLA OSHIDAN...



- Rangli qog'ozlardan o'z qo'limiz bilan yasadik, - deydi aka-ukalar.



Suratdagi

aka-uka Diyorbek va Islomjon Donyor o'g'illari g'ayrati ichiga sig'maydigan shijoatlari bolajonlar. Shu bilan birga, juda iqtidorli. Hali bog'cha tarbiyalanuvchisi bo'lishlariga qaramay, ular xuddi kattalarde fikr yuritishadi. Bo'sh vaqtlarida suzish va rasm to'garaklariga qatnaydi. She'rlarni ifodali o'qishini ko'sangiz, «Balli», degingiz keladi. Qolaversa, tarbiyachi opasidan gullar yasashni ham o'rganmoqda. Shuni aytisha kerak-da, «Bo'lar bola boshidan», deb...

MANZURA

MAZALI EKLER

Pazanda qizga!

Kerakli masalliqlar: 1 stakan suv, 5 ta tuxum, 100 gramm sariyog', 150 gramm un, bir chimdim tuz.

Kremiga: 1 banka quyultirilgan sut, 100 gramm sariyog'.

Tayyorlanishi: Chuqurraq qozonchaga 1 stakan suv solib, gazni past olovga yoqamiz. Iligach, tuz, un va sariyog'ni oz-ozdan solib, aralashtirishda davom etamiz.



Qozonchani olovdan olib, sovg'ich 5 dona tuxumni chaqib solamiz. Xamir quymoq xamiridan biroz quyuqroq bo'ladi. Uni maxsus pishiriq qopchasiga solib, pishiriq qog'izi to'shalgan gaz patnisiga birma-bir siqib chiqarishadi. Keyin 180 haroratda qizdirilgan gaz pechida 20 daqiqada pishiramiz. Qizargan pishiriqlarning ustiga quyultirilgan sut va sariyog' aralashmasidan tayyorlangan krem surtamiz. Tayyor eklerlarni o'zingiz istagandek kokos qirindisi yoki suyuq shokolad bilan bezatishingiz mumkin.

NARGIZA tayyorladi



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADIROVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALIOVA,
Ashurali JOR'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinsosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruzbek KAMOL og'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 61356
Buyurtma – V 1826

Tahririyatga kelgan
barcha qoloyzmalarni tahrir
qilinadi, mualliflarga
qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba
kauni chop etiladi.
Topshirish vaqt – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08